

pikirlawdi rawajlandırıw ushın kritikalıq pikirlew qásiyetlerin qalıplestiriw zárúr boladı.

Baslawısh klass oqıwshılarında kritikalıq pikirlewdi jetilistiriwde bilim beriwdiń bir neshe aktiv formalarınan paydalanıw múmkin, biraq, bilim beriwdiń «jup bolıp islew», «toparlarda islew» yamasa «jámaátlik usılı» sıyaqlı shólkemlestiriwshilik formaları ele de jaqsıraq nátiye beretuǵınlıǵı dálilengen.

Interaktiv sabaqlarda kóbirek tómendegi máselelerge itibar qaratıladı:

-Tema boyınsha oqıwshılarda óz betinshe pikirlew, juwmaqqa keliw, olardı bayan etiw, qorgawǵa úyretiw kónlikpelerin rawajlandırıw maqset etip qoyıladı.

-Oqıtıwshı kóbirek oqıwshılardıń óz betinshe jumsların hám prezentaciyların shólkemlestiriw, basqarıw, qadaǵalaw, sońǵı juwmaqların dálillep beriw wazıypaların orınlaydı.

-Sabaqqa tayarlanıw waqtında interaktiv sabaq islenbesi, óz betinshe jumslar ushın tapsırmalar, tarqatpa materiallar, basqa da kerekli qurallardı aldın-ala tayarlaydı.

-Bunday sabaqlarda sabaq waqtınıń kóp bólimi oqıwshılardıń óz betinshe tapsırmalardı orınlawı, pikir almasıwı, ózleriniń sheshimlerin bayan etiwı hám qorgawǵa sarıplanadı.

-Sabaq waqtında tiykarınan kishi lekciya, topar yaki jup bolıp islew, prezentaciylar, báseki-tartıs, dóńgelek stol sawbeti, ámeliy jumslar h.b. shınıǵıwlar alıp barıladı.

-Oqıwshılar sabaqta oqıtıwshı bergen tapsırmalardı orınlaw boyınsha óz betinshe erkin pikirlew, óziniń pikir hám sheshimlerin basqalarǵa salıstırıw, dáliller keltiriw hám sońǵı juwmaqqa keliw, jumsların prezentaciya qılıw sıyaqlı wazıypalardı orınlaydı.

Juwmaqlap aytqanıwızda sabaq barısında baslawısh klass oqıwshılarınıń kritikalıq pikirlewin rawajlandırıw maqsetinde joqarıda kósetilgen interaktiv metodlardan qollanıw sabaq alıp barılsa, biz álbette aldımızǵa qoyǵan maqsetke erisken bolar edik. Hár bir oqıtıwshı ózi oqıtatuǵın páninde bilim alıwshılar pikirini inabatqa alsa álbette óz pikirine iye, tereń pikirlewshi jaslar tárbiyalanıw shıǵıwına isenemiz.

Ádebıyatlar

1. Abdinazimov Sh. Ana tili hám oqıw sawatlılıǵı 1-bólim 2-klass ushın sabaqlıq. –Tashkent: Respublika bilimlendiriw orayı, 2021. – 120 b.

2. Abdinazimov Sh. Ana tili hám oqıw sawatlılıǵı 2-bólim 2-klass ushın sabaqlıq. 120-b.

3. Babasheva G.B. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini kompleks tako-millashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). O'quv qo'llanma. 120-b.

4. Babasheva.G.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy fikrlash jarayoniga psixologik va pedagogik yondashuvlar. // «Ilm hám jámiyet» 2020, №1, 114-115-b.

5. Бакиева Х. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси. Пед. фан. докт. (PhD)...дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. 20-б.

6. Бошланғич таълим концепцияси. // Бошланғич таълим. 1998. №6. 12-18-б.

7. Жумашева Г.Х. Баслаўыш классларда оқыўшылардың сөйлеў тилин өсирийўдиң метод ҳәм усыллары. // «Илим ҳәм жәмийет», 2018. №2. 65-66-б.

8. Goziyev E.E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1990. 306–307-b.

9. Uspanova J., Abdijabbarova X. Ana tili hám oqıw sawatlılıǵı. 2-bólim. 3-klass ushın sabaqlıq. – Tashkent: Respublika bilimlendiriw orayı, 2022. 144-b.

REZYUME. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy shakllari ko'rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются основные формы развития критического мышления у учащихся начальных классов.

SUMMARY. This article examines the main forms of developing critical thinking in primary school students.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

J.Baltabaev – tayanch doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: interaktiv vositalar, elektron ta'lim, informatika, innovatsiya, raqamlashtirish, chat platformalari, multimedia, avtomatik baholash, onlayn platforma.

Ключевые слова: интерактивные инструменты, электронное обучение, информатика, инновации, электроника, оцифровка, чат-платформы, мультимедиа, автоматическое оценивание, онлайн-платформа.

Key words: interactive tools, e-learning, informatics, innovation, electronicization, digitization, chat platforms, multimedia, automatic assessment, online platform.

Kirish. Raqamli ta'lim muhitida axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining interaktivligini oshirib, o'quvchilarning bilim olish samaradorligini

yuksaltiradi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarning bilim olish jarayonini takomillashtirish, interaktiv o'qitish usullarini rivojlantirish va o'qituvchilarning ish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish uchun raqamli ta'lim muhiti keng joriy etilmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Elektron resurslar, onlayn platformalar va virtual o'quv xonalarining paydo bo'lishi ta'lim jarayonining yangi bosqichga chiqishini ta'minlamoqda.

Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti va axborot texnologiyalaridan foydalanishning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda raqamli ta'lim muhiti va axborot texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi bo'yicha turli tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar mustaqil ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lib, an'anaviy darslarga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishishlari kuzatilgan. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari va sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim vositalari ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda empirik va nazariy tadqiqot usullari qo'llanildi. Birinchidan, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining samaradorligi bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Ikkinchidan, raqamli ta'lim muhitida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy misollar ko'rib chiqildi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalar o'rganildi.

Natijalar va tahlil. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalaridan foydalanish interaktivlikning oshishi, moslashuvchan ta'lim, axborot resurslarining kengayishi, nazorat va baholash samaradorligi ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga raqamli vositalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytiradi, har bir o'quvchi o'zining individual o'rganish sur'atiga mos ravishda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi, elektron kutubxonalar va onlayn kurslar orqali bilim olish imkoniyatlari ortadi va test baholash tizimlari orqali bilimlarni obyektiv baholash imkoniyati yaratiladi.


Tadqiqotning ushbu bo'limida raqamli ta'lim muhitining mohiyati, asosiy xususiyatlari, tarkibiy qismlari va axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganildi.

Raqamli ta'lim muhitining mohiyati. Raqamli ta'lim muhiti - bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga mo'ljallangan platforma va vositalar majmuasidir. Ushbu muhitda o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar onlayn rejimda amalga oshiriladi, bu esa ta'lim jarayonini an'anaviy shakllardan farqli ravishda ko'proq interaktiv va moslashuvchan qiladi [7].

Asosiy xususiyatlari	
Interaktivlik	Raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarning faolligini oshiradi. Videodarslar, testlar, forumlar, chatlar kabi interaktiv elementlar yordamida bilim olish jarayoni qiziqarliroq bo'ladi.
Moslashuvchanlik	Talabalar istalgan vaqtda va joyda bilim olish imkoniga ega bo'ladi. Internet orqali kirish mumkinligi sababli darslar va resurslardan cheklovsiz foydalanish ta'minlanadi.
Turli formatdagi resurslar	Raqamli ta'lim muhitida matnli hujjatlar, audio va video materiallar, infografikalar, testlar va virtual laboratoriya mashg'ulotlari kabi ko'p formatdagi materiallar mavjud bo'lishi mumkin.
Individuallashtirish	Har bir o'quvchining bilim darajasi va ehtiyojlariga mos keluvchi maxsus dasturlar yaratish imkonini beradi.
Talabalar faoliyatini monitoring qilish	O'qituvchilar o'quvchilar faoliyatini kuzatib borishi, ularning o'zlashtirish darajasini baholashi va o'z vaqtida yordam ko'rsatishi mumkin.

[1].

Raqamli ta'lim muhiti tarkibiy qismlari:



Raqamli ta'lim muhitining afzalliklariga ta'lim jarayonining iqtisodiy samaradorligi, chunki joylashuv masofasi va vaqt cheklovlari muhim emas. Talabalar o'z sur'atida bilim olishlari va qayta takrorlash imkoniga ega bo'lishadi. Jamoaviy loyihalar va masofadan o'qitish usullari yordamida yangi ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati. Raqamli ta'lim muhiti zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, uning to'g'ri tashkil etilishi bilim olish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri

Axborot texnologiyalari (AT) zamonaviy ta'lim jarayonlarini o'zgartirib, o'qitish va o'rganish usullarini samaraliroq va moslashuvchanroq qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida

bilim olish jarayoni an'anaviy o'qitish shakllaridan farqli ravishda interaktiv, dinamik va o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib boradi.

Muhokama. Axborot texnologiyalarining asosiy ta'sir yo'nalishlariga har bir talabaga uning bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda o'quv-materiallari taqdim etilishi mumkin. Masalan adaptiv tizimlar (adaptive systems) yordamida o'quv materiallari talabaning o'zlashtirish darajasiga moslashtiriladi. Onlayn testlar orqali talabalarning zaif tomonlarini aniqlab, ularga mos ta'lim resurslari taqdim etiladi.

Interaktiv o'qitish bu - multimedia va interaktiv vositalar o'quvchilar bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bunga videodarslar, animatsiyalar va infografikalar kirib, ular murakkab mavzularni oson tushunishga yordam beradi [6]. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar esa talabalarga real tajribalarni xavfsiz va iqtisodiy jihatdan qulay tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga masofaviy ta'lim imkoniyatlari AT ta'limni geografik cheklovlarisiz amalga oshirish imkonini yaratadi. Bu esa, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi talabalar yoki ishlayotgan mutaxassislar uchun muhimdir. Onlayn ta'lim platformalari (Moodle, Coursera, Khan Academy kabi) bugungi kunda Respublikamizda keng qo'llanilmoqda [5].

Axborot texnologiyalari yordamida turli formatdagi materiallarni (matn, audio, video, grafikalar) bir tizimga jamlash va ulardan foydalanish imkonini beradi. Bularga:

- Elektron darsliklar va qo'llanmalar.
- Onlayn kutubxonalar va ochiq ma'lumotlar bazalari.
- Virtual o'yinlar va treninglar.

AT orqali o'qituvchilar o'quvchilarning faoliyatini kuzatib, ularning o'zlashtirish darajasini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan onlayn testlar va

avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, raqamli jurnallar va hisobotlar, analitik dasturlar orqali o'quvchilarning faoliyatini tahlil qilish mumkin.

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular orqali bilim olish jarayonini moslashuvchan, samarali va interaktiv qilish mumkin. Biroq, ushbu texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun infratuzilmani rivojlantirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va o'quvchilarning raqamli texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish lozim [3].

Elektron ta'lim sifatini oshirish usullari sifatida virtual laboratoriyalar orqali talabalar tajribalar va eksperimentlarni xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mobil ilovalar esa ta'lim materiallarini yanada qulay va tezkor yetkazib berish uchun ishlatiladi.

Xulosa. Raqamli ta'lim jarayonida uchraydigan asosiy muammo sifatida texnologik cheklovlar, chu jumladan internet tezligi va texnik vositalarning yetishmasligi, didaktik muammolarga bo'lsa elektron resurslarning sifatiga qo'yiladigan talablarning oshirilishi zarur deb hisoblaymiz va chu bilan birga kadrlar masalasi yuzasidan o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish lozim.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat dasturlarini joriy etish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish va o'qituvchilarni qayta tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta'lim muhiti va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularda mustaqil o'qish va izlanish ko'nikmalarini shakllantirish va chu orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin [4].

Adabiyotlar

1. Adhamov R. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2020.
2. Soliyeva N. Elektron ta'lim tizimining rivojlanishi va istiqbollari. // Ta'lim innovatsiyalari jurnali, 2021.
3. Karimov A. Axborot texnologiyalari va ta'limda ularning o'rni. -Toshkent: «Sharq nashriyoti», 2019.
4. Davronov M. Onlayn ta'lim platformalari va ularning imkoniyatlari. Elektron ta'lim muhitida, 2022.
5. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'limni rivojlantirish yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobotlari, 2020.
6. Johnson L., Becker S. The Horizon Report: Higher Education Edition. New Media Consortium. 2020.
7. UNESCO. "Digital Learning in the 21st Century." UNESCO Publications, 2021.

REZYUME. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti va axborot texnologiyalari yordamida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari va foydalanish usullari tahlil qilindi. Shu bilan birga, bu texnologiyalarning ta'limdagi o'rni, afzalliklari va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari haqida ma'lumotlar berildi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье проанализированы возможности и методы использования электронной среды обучения и повышения качества образования с помощью информационных технологий. При этом была представлена информация о роли этих технологий в образовании, их преимуществах и будущих направлениях развития.

SUMMARY. This article analyzed the possibilities and methods of using the electronic learning environment and improving the quality of education with the help of information technologies. At the same time, information was provided about the role of these technologies in education, their advantages, and future directions of development.